



**QARLUQ (CHIGIL-UYG'UR) LAHJASI:  
TILSHUNOSLIKDA NAZARIY VA AMALIY  
YONDASHUVLAR**

**Yoqubov Sodiqjon Latif o'g'li,**  
*Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti*

**QARLUQ (CHIGIL-UYGHUR) DIALECT:  
THEORETICAL AND PRACTICAL  
APPROACHES IN LINGUISTICS**

**Yakubov Sodikjon Latif ugli,**  
*basic doctoral student of Navoi State University*



**КАРЛУК (ЧИГИЛ-УЙГУРСКИЙ) ДИАЛЕКТ:  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ  
ПОДХОДЫ В ЛИНГВИСТИКЕ**

**Якубов Содикжон Латиф угли,**  
*базовый докторант Навоийского государственного  
университета*



**E-mail:** [mirzosodiqjon.@gmail.com](mailto:mirzosodiqjon.@gmail.com)

**Orcid:** 0009-0008-6409-3463

**Doi:**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17162325>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilining muhim dialektlaridan biri bo'lgan qarluq (-chigil-uyg'ur) lahjasi tarixiy-lingvistik va zamonaviy dialektologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Maqolada G'ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Y.D.Polivanov kabi tilshunos olimlarning qarluq lahjasiga oid tasniflari tahlil qilinadi hamda bu lahjaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy-etnik omillar yoritiladi. Shuningdek, Andijon va Qo'qon shevalarining fonetik va morfologik xususiyatlari asosida qarluq lahjasining adabiy til bilan yaqinligi ilmiy asosda izohlanadi. Lahja tarkibidagi shevalarning singarmonizm, unlilar tizimi va yordamchi so'zlar tizimidagi farqlari ham tahlil etiladi. Tadqiqotda tarixiy yozma manbalar, jumladan, Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiyning til haqidagi mulohazalari asos sifatida olingan. Maqola qarluq lahjasining o'zbek tili taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash, uning ichki tasnifi va rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Qarluq lahjasi, o'zbek tili dialektologiyasi, fonetik xususiyatlar, morfologik tahlil, Andijon shevasi, Qo'qon shevasi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается карлукский (-чигил-уйгурский) диалект, один из важных диалектов узбекского языка, с историко-лингвистической и современной диалектологической точки зрения. В статье анализируются классификации таких лингвистов, как Гази Олим Юнусов, А.К. Боровков, В.В. Решетов, Ю.Д. Поливанов относительно карлукского диалекта, и выделяются историко-этнические факторы, повлиявшие на формирование этого диалекта. Также на основе фонетических и морфологических характеристик андижанского и кокандского диалектов научно объясняется близость карлукского диалекта к литературному языку. Анализируются также различия в структуре диалекта с точки зрения сингармонизма, системы гласных и системы вспомогательных слов. Исследование основано на исторических письменных источниках, в том числе на комментариях к языку Махмуда Кашгари и Алишера Навои. Статья служит важным научным источником для определения места карлукского диалекта в развитии узбекского языка, освещения его внутренней классификации и этапов развития.



**Ключевые слова:** карлукский диалект, узбекская диалектология, фонетические особенности, морфологический анализ, андижанский диалект, кокандский диалект.

**Annotation.** In this article, the qarluq (-chigil-Uyghur) dialect, an important dialect of the Uzbek language, is studied from a historical-linguistic and modern dialectological point of view. In The Article, Ghazi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Y.D.The classifications of linguistic scientists such as Polivanov on the qarluq dialect are analyzed and the historical and ethnic factors that influenced the formation of this dialect are highlighted. Also, on the basis of the phonetic and morphological features of the Andijan and Kokand dialects, the proximity of the qarluq dialect with the literary language is explained on a scientific basis. The differences of dialects in the dialect in the system of singarmonism, vowel system and auxiliary words are also analyzed. The study draws on historical written sources, including Mahmoud Koshgari and Alisher Nawai's reflections on language as the basis. The article serves as an important scientific resource in determining the place of the qarluq dialect in the development of the Uzbek language, highlighting its internal classification and stages of development.

**Keywords:** Qarluq dialect, dialect of Uzbek language, phonetic features, morphological analysis, Andijan dialect, Kokand dialect.

## KIRISH VA DOLZARBLIK

Turkiy tillar oilasi ichida Qarluq lahjasi alohida o‘rin egallaydi. Bu lahja asosan Chigil va Uyg‘ur qabilalarining tili asosida shakllangan bo‘lib, hozirgi zamon o‘zbek, uyg‘ur, va boshqa Markaziy Osiyo turkiy tillarining rivojlanishida muhim manba hisoblanadi. Tilshunoslikda Qarluq lahjasining o‘rganilishi turkiy tillar tarixini aniqlash, qadimiy yozma yodgorliklarni to‘g‘ri talqin qilish va zamonaviy dialektologik tadqiqotlarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy yondashuvda Qarluq lahjasini dialektlar asosida o‘rganish muhim. Masalan, Andijon, Farg‘ona, Toshkent, Qashqar va Yettisuv hududlarida saqlanib qolgan shevalar orqali lahjaning zamonaviy izlari aniqlanadi.

Hozirgi kunda matn korpuslari, akustik tahlil dasturlari va leksik statistik usullar yordamida Qarluq lahjasining izlari tizimli tarzda o‘rganilmoqda. Ayniqsa, fonetik spektrogramma yordamida qadimiy talaffuzlarni restavratsiya qilish amaliyotda qo‘llanmoqda.

## METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Qarluq (-Chigil-Uyg‘ur) lahjasining tilshunoslikdagi nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi:

1. **Deskriptiv (tasviriy) metod** – lahjaviy birliklar, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar tizimli ravishda tavsiflandi.
2. **Taqqoslama-tarixiy metod** – Qarluq lahjasining boshqa turkiy lahja va tillar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini tarixiy rivojlanish jarayonida solishtirildi, ayniqsa, Uyg‘ur va Chigil unsurlari alohida tahlil qilindi.



3. **Struktural yondashuv** – lahjaning fonologik, morfologik va sintaktik qurilishi tahlil qilindi.
4. **Etnolingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar** – til va lahjaning ijtimoiy kontekstdagi o‘rni, tarixiy-etnik jarayonlar bilan bog‘liqligi o‘rganildi.
5. **Manba tahlili** – qadimgi yozma yodgorliklar, zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va sahna nutqi namunalari asosida amaliy kuzatishlar olib borildi.

Qarluq lahjasi, xususan, Chigil va Uyg‘ur unsurlarining tilshunoslikda o‘rganilishi anchayin tarixiy ildizlarga ega. Shunga qaramay, ushbu lahja doirasida hali to‘liq o‘rganilmagan yoki chuqur tahlil qilinmagan jihatlar mavjud. Quyidagi holatlar mazkur mavzuning ilmiy o‘rganilish darajasini aniqlab beradi:

**Klassik tadqiqotlar:** Mahmud Koshg‘ariy, Radlov, Barthold kabi olimlar asarlarida Qarluq lahjasiga oid ba‘zi leksik va fonetik ma‘lumotlar uchraydi, biroq bu yondashuvlar ko‘proq tarixiy-filologik yo‘nalishda bo‘lgan.

**Sovet davridagi tadqiqotlar:** 20-asr o‘rtalarida Qarluq lahjasining ayrim xususiyatlari turkiy tillar tasnifi doirasida o‘rganilgan (A. N. Kononov, N. A. Baskakov, E. R. Tenishev).

**Zamonaviy izlanishlar:** Hozirgi kunda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Xitoydagi uyg‘urshunoslik markazlarida ayrim leksik-semantik va morfologik tadqiqotlar olib borilmoqda, biroq Chigil komponentining roli kam yoritilgan.

**Muammo va bo‘shliqlar:** Ayniqsa, Chigil-Uyg‘ur aralash unsurlarining lahjaviy va etnolingvistik chegaralari aniq belgilab berilmagan, bu esa mavzuning dolzarbligini oshiradi.

### TADQIQOT NATIJALARI

O‘zbek tilshunos olimi, professor G‘ozi Olim Yunusov o‘zigacha bo‘lgan klassifikatsiyalar, jumladan, A.N.Samoylovich va Y.D.Polivanovlarning ishlarini tanqidiy o‘rganadi va o‘z tasnifida hozirgi kunda qarluq lahjasi sifatida ko‘rilayotgan dialektni “turk-barlos” deb nomlaydi. *“Mening tasnifimda ikkinchi bo‘limga kirgan bu lahja “Chig‘atoy lahjasi”, Chig‘atoy tili” deb ham ataladi. Temur va temuriylar davrida hokim vaziyat olgan va bu kunda ham yarim ko‘chmanchi holda O‘zgan, Anjan (Andijon), Qalaquduq va Marhamat rajonlarida, O‘smat (Jizzax rajonida), Urgut (Qaratepa, Taxtaqoracha), Kitob (Qashqadaryo) va Qoratoq (Tojikiston) atrofida yashovchi Turk-barlos qabilasining jonli tili bo‘lib, chig‘atoy adabiy tiliga asos bo‘lgan bu tilni mazkur qabila ismiga nisbatan turk-barlos lahjasi deb ataymiz. VI asr milodiyda O‘rta Osiyoda tuzilgan mashhur Turk davlati tashkilotida ham bu turk nomini tashigan qabila hokim vaziyatni ishg‘ol etgan, ul davlatga o‘z ismini*



*bergan va u davrda o'z jonli tili asosida adabiy til tuzgan deb o'ylayman<sup>1</sup>*". Bu lahjani olim 4 ta katta shevalar guruhiga ajratadi: 1. Sayram-Chimkent; 2. Toshkent-Xos; 3. Andijon (manbada Anjan); 4. Namangan. Bu guruhlarga oid shevalardan Sayram-Chimkent shevasi "Chig'atoy adabiy tili"ga tovushlar sistemasi va singormanizmni yaxshi saqlaganlik darajasi bo'yicha eng yaqini, morfoloik jihatdan O'rxun obidalariga eng yaqini Toshkent-Xos shevalari ekanligi qayd etiladi<sup>2</sup>. Ammo ushbu tasnif o'zbek-qarluq lahjasining ko'lamini to'la-to'kis qamrab olmagan, nazarimizda. To'g'ri, qarluq shevalari haqida fikr yuritarkan, olim Xiva-Urganch lahjasi tarkibida qarluq shevalar guruhini qayd etadi. Koshg'ariyning fikrlariga tayangan holda, ularning tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti davomida "turkmanlashgan"i, ammo turk-barloslar bilan yaqin aloqada bo'lib kelgani va ularning ta'sirida bugungi qarluqlar tili turkmanlarnikidan farqlanishini ta'kidlaydi. G'ozim Olim ta'kidlari, o'zi qayd etganidek, bir necha asosga ega bo'lsa-da, umumiy holda chalkashliklardan holi emas edi. O'zbek shevalari klassifikatsiyasining keyingi taraqqiyotida qarluq shevalari butun bir lahjani tashkil etishi belgilab qo'yildi. Faqatgina, G'ozim Olim ham ta'kidlaganidek, ayrim fonetik, morfologik hamda hududiy qo'shnichilik ta'sirlari borligi lahja ichida shevalarga tasniflanishiga olib keldi. Umuman, G'ozim Olim Yunusov mahalliy mutaxassis sifatida o'zbek milliy tilini yaxshi bilgani, bu tilga xos kichik kategoriyalarni ham ajrata olgani uning yutug'i hisoblanadi. Shuningdek, birinchi milliy klassifikator keyin tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajargani ham olimning o'zbek dialektologiyasiga qo'shgan ulkan hissasidir.

O'zbek shevashunosligida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan A.K.Borovkov hozirgi kunda qarluq dialekti sifatida tahlil qilayotgan lahjani o'z tasnifida "O'rta o'zbek" dialekti deb nomlaydi. "O" lashish va "a" lashish hodisalarini inobatga olgan holda ikki guruhga ajratadi: 1. 6-7 unlili, "o" lashish hodisasi mavjud bo'lgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona kabi shahar va shahar atrofi shevalarini kiritadi. Ularda singormanizm deyarli sezilmaydi; 2. Chimkent, Sayram, Jambul, Marki kabi hududlardan tashkil topgan Shimoliy o'zbek shevalaridan tashkil topgan guruhdan iborat. Bu shevalarda 7-8 unli, asosan, "a" lashgan, singormanizm hodisasi mavjud. Olim dastlab, o'tgan asrning qirqinchi yillarida ham o'zbek shevalarini tasnif qilgan edi<sup>3</sup>.

V.V.Reshetov o'zidan avval yaratilgan klassifikatsiyalardan kerakli xulosa

<sup>1</sup> Qljazi Alim Junus. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent: Davlat naşrijati, 1935. – B. 19.

<sup>2</sup> Qljazi Alim Junus Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent: Davlat naşrijati, 1935. – B. 21.

<sup>3</sup> Qarang: Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 117.; Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 35-36.; Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 33-34.



chiqargan holda, hozirgi kunga qadar eng takomillashgani deya e'tirof etiladigan tasnifida birinchi marta qarluq lahjasini alohida dialekt sifatida guruhlagi va "qarluq-chigil-uyg'ur" termini bilan nomladi. Olim o'z tasnifida shevalarning tarixiy-lingvistik rivojlanish xususiyatlariga e'tibor qaratdi. Bu shevalar guruhini yolg'iz "qarluq" atamasi bilan nomlab bo'lmashligini, ularning tili ittifoqchi sifatida tarixiy-tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, qardosh til va dialektlardan tashqari, fors tilidan kuchli ta'sirlashgani sababli alohida lahjaga ajratadi hamda "qarluq-chigil-uyg'ur" nomi bilan ataydi. Yuqorida qarluq, chigil, yag'mo, halaj, uyg'ur kabi qabilalar siyosiy ittifoq tuzib yashagani, yozuv madaniyatiga ega bo'lgani ta'sirida tillari takomillashib adabiy tildan badiiy adabiyot tiliga aylangani haqida yozgan edik. V.V.Reshetov ham ana shu tarixiy-lingvistik jihatlariga e'tibor qaratgan edi.

Shu vaqtga qadar o'zbek tilining qarluq (-chigil-uyg'ur) lahjasi haqida juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Dastlabki ishlar sifatida, yuqorida qayd etganimiz kabi V.P. Nalivkin, shuningdek, o'zbek xalq shevalarini tadqiq va tasnif qilgan Y.D.Polivanov, G'.O.Yunus, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov kabilarning nomlarini tilga olishimiz mumkin. Bundan tashqari, alohida hudud, lahja va sheva misolida ham tadqiqotlar yaratilganki, ushbu faslda ana shunday ishlarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Shevashunos olim Sobirjon Ibrohimov o'zining "O'zbek tilining Andijon shevasi" asarida Andijon shevalari misolida o'zbek tilining qarluq (-chigil-uyg'ur) lahjasini tadqiq qilgan. Olim o'z ishida Andijon xalqi va tili(shevasi)ni tarixiy-lingvistik tadqiqotlarga bog'lab tahlil qiladi. Jumladan, azaldan bu hududda turkiy chigil qabilasi istiqomat qilgani, hatto, chigillar qabilasining poytaxti XII asrda O'zganndan Andijonga ko'chirilgani, bu shevaning etnogenetik va etnolingvistik shakllanishida chigillar muhim rol o'ynaganini qayd etadi. Tarixiy chigillar (qarluq, uyg'urlar bilan birga) ittifoqi davrida ilk adabiy til shakllangan va hozirga qadar shu an'ana saqlanib qolgan. Qarluq (-chigil-uyg'ur) lahjasi tarkibiga kiruvchi Andijon shevasi adabiy tilning tarixiy-tadrijiy rivojlanishining barcha bosqichlarida tayanch sheva vazifasini bajar(ayot)ganini ta'kidlagan olim, XI asrdan buyon yaratilgan yozma obidalar tilining tahlilini o'z ishida qayd etib o'tadi. M.Koshg'ariyning ensiklopedik manbasidagi chigillar tili haqidagi qaydlari, Navoiyning fikrlari, Boburning (manbada Bobir shaklida keltirilgan) "qalam birla rost" bo'lgan Andijon tilini sof saqlagani kabi fikrlar shular jumlasidandir. Olimning bu shevada 8-9 unli mavjudligi va "o" lashish hodisasi borligi haqidagi qarashlari, yuqorida qayd etilgan tasniflarda e'tirof etilgani kabi bu sheva o'zbek tilining qarluq (-chigil-uyg'ur) dialektiga xosligini ifodalaydi. Bu tadqiqotda olim Andijon shevasiga xos fonetik va



morfoloqik xusisiatlarni tadqiq qilgan<sup>4</sup>. Biz dissertatsiyamizda tadqiq qilayotgan yordamchilar – ko‘makchi, yuklama va bog‘lovchi so‘z turkumlariga oid tahlillarni ham S.Ibrohimovning ishida kuztishimiz mumkin.

Sh.Nosirovning “O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi” nomli tadqiqotini ham qarluq lahjasining o‘rganilishiga bir namuna sifatida qayd etishimiz mumkin<sup>5</sup>. Y.D.Polivanov klassifikatsiyasida “chig‘atoy” guruhining 5-tipida tasniflangan Qo‘qon shevasini singormanizmga ega deya qayd etadi. V.V.Reshetov janubiy-sharqiy guruhi – qarluq (-chigil-uyg‘ur) lahjasining Farg‘ona guruhidagi Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti sifatida qayd etadi va uning milliy tildan, shuningdek, lahja ichidagi o‘ziga xos farqlovchi xususiyatlarini dalillab beradi. Sh.Nosirovning tadqiqotida Qo‘qon shevasiga xos fonetik morfoloqik jihatlar tahlil qilingan. Jumladan, olim ushbu shevada 6 ta unli fonema mavjudligini qayd etadi. Bu esa shevaning tovushlar sistemasi adabiy tilga mos ekanligidan darak beradi. Faqatgina vodiyni boshqa shaharlari kabi Qo‘qonning atrofidagi yashovchi qipchoq shevali aholi tilida [ü] fonemasi mavjudligini ta’kidlaydi<sup>6</sup>. Morfoloqik xususiyatlari ham batafsil tahlil etilgan ushbu tadqiqotning xulosasida Qo‘qon shevasining boshqa o‘zbek shevalari tartibidagi va shaharlararo shevalarga munosabati yoritib berilgan. Olimning xulosasida Qo‘qon shevasi adabiy tilning tayanch shevalarining biri sifatida qarluq(-chigil-uyg‘ur) lahjasining tipik vakili ekanligi dalillangan. Tadqiqotimiz uchun zarur bo‘lgan yordamchi so‘zlar ham Sh.Nosirovning ishidan o‘rin olgan bo‘lib, bu haqida dissertatsiyamizning keyingi faslida batafsil fikr yuritib o‘tamiz.

### XULOSALAR

Qarluq (-Chigil-Uyg‘ur) lahjasi turkiy tillar tizimida o‘ziga xos tarixiy, fonetik va morfoloqik xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab til birliklaridan biridir. Ushbu maqolada lahjaning shakllanishida ishtirok etgan Chigil va Uyg‘ur unsurlari lingvistik nuqtai nazardan nazariy hamda amaliy asosda tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, Qarluq lahjasining shakllanishida tarixiy-etnik omillar, ijtimoiy til almashinuvi va hududiy aloqalar muhim rol o‘ynagan.

Deskriptiv, tarixiy-taqqoslama, struktural va sotsiolingvistik metodlar asosida olib borilgan tahlillar natijasida lahjaning asosiy fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari belgilab berildi. Ayniqsa, Chigil unsurlarining mavjudligi va ular orqali lahjaning boshqa turkiy tillardan farqli jihatlarini aniqlash hozirgi turkologiya uchun muhim ilmiy natijalardan biridir.

<sup>4</sup> Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. Фонетика морфология. – Тошкент: Фан. 1967. – 260 б.

<sup>5</sup> Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеvasи. – Тошкент: Фан. 1967. – 176 б.

<sup>6</sup> Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеvasи. – Тошкент: Фан. 1967. – Б. 16-18.



Shu bilan birga, Qarluq lahjasining ayrim jihatlari hanuzgacha chuqur va tizimli ravishda o'rganilmaganligi, xususan, Chigil komponentining lingvistik xarakteristikalari yetarlicha tadqiq qilinmaganligi mavzuning istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatadi. Kelgusi izlanishlarda dialektologik so'rovnomalar, zamonaviy korpus lingvistikasi va tarixiy manbalarni uyg'unlashtirgan holda Qarluq lahjasining rivojlanish bosqichlarini chuqurroq yoritish dolzarb bo'lib qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.
2. Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
3. А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
4. N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.
5. Darvishov, Ibrohim. Areal tilshunoslik: janubi-g'arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. / monografiya / T.: "NAVRO'Z", 2019. – 148 b.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2-jild, 2012.
7. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.
8. Муҳаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казгистана: Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1981.
9. Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. I. – Toshkent, 1960. – B.69.
10. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1962.
11. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi.- T.:Navro'z nashriyoti.2016.
12. www.ziyo.uz.